MURABBA'I MUSAJJA'GA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Ibragimova Nilufar
BuxDU magistri

Annotatsiya: Ushbu tezisda musammatlarning bir turi bo'lgan murabba' haqida fikr yuritiladi. Murabba' haqidagi nazariy ma'lumotlarga munosabat bildirildi.

Kalit so'zlar: Ahmad Taroziy, musammat, murabba', saj', murabba'i musajja'.

Ma'lumki, murabba' musammatlarning bir turi bo'lib, u Sharq mumtoz adabiyotning she'riy shakllaridan biridir. Uning shakllanishi bevosita xalq og'zaki ijodiyotiga borib taqaladi.

O'zbek mumtoz adabiyotshunosligining ilk namunasi bo'lgan Ahmad Taroziy " Funun ul-balog'a" asarida musammatlarning besh turi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Jumladan, asarda murabba' haqida quyidagi nazariy ma'lumot keltirilgan: **"Musammat besh turluk bo'lur: musammati murabba', musammati musaddas va musammati muxammas, musammati muashshar"**[1]. Shu o'rinda adabiyotshunos olimning musammatlarning murabba' turi haqidagi fikrlari ham e'tiborni tortadi. Olim murabba' haqida to'xtalar ekan, quyidagicha fikr bildirib o'tadi: **" ... Ammo musammati murabba' aningtek bo'lurkim, she'rni to'rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj' rioyat qilubtur. To'rtinchi qismda qofiya keltururlar. Misoli bu:**

Ey orazi **rashk-i** qamar, zulfung g'amida har **sahar**
Chin- u Xo'tanda **mushk-i tar** oshufta-i shaydo bo'lur.
Dar lahza,ey mohi **Xo'tan**, bo'lsang xiromon dar **chaman,**
Faryodu nolish yuz **tuman** har go'shadin paydo bo'lur".[2]

Yuqoridagi murabba'da "qamar", "sahar", " mushk-i tar" so'zlari ichki qofiya tashkil qilgan , " shaydo" so'zi esa asosiy qofiya bo'lib kelgan. Olim ta'kidlagan murabbaning bu turi g'azali musajja' shakliga o'xshab ketadi. Keyingi ikki misrada ham " Xo'tan", " chaman", " tuman" so'zlari xuddi shunday ichki qofiyani hosil qilgan. Ahmad Taroziyning murabba'i musajja'ga oid bildirgan fikrlarini mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi nazariy ma'lumotlar bilan qiyoslab o'rganishga harakat qildik.

Atoulloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asarida murabba'ga shunday ta'rif berilgan: "Avvalgi nav'i uldurkim, uch misrani bir qofiyada berib to'rtinchi misrani she'r o'zagini tashkil etgan o'zga qofiyada berurlar".[3]

O'zbek mumtoz adabiyotidagi kichik lirik janrlar ustida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim R.Orzibekov murabba'ning shu shakldagi she'rlardan farqli jihatlariga quyidagicha izoh beradi: "...murabba'larning klassik formasi ma'lum va yaxlit mazmunni ochishga mo'ljallangan bir qancha to'rtlik bandlarning birikishidan tashkil topganligi, musammatlarning boshqa xillariga xos qofiya tartibiga va vazn o'lchovlariga ega bo'lishi, g'azal, musammat, mustazodlardagi kabi oxirgi satrlarda shoir taxallusining ko'rsatilishi va hokazo bilan har bir to'rtligi o'zicha mustaqil sanalgan, har biri o'ziga xos qofiya tartibiga, vazn o'lchovlariga, mavzu doirasiga, poetik usullariga ega bo'lgan ruboiy, tuyuq, qit'a, dubaytiy va taronalardan farq qilib turadi" [4].

---

[1] Ahmad Taroziy. " Funun ul-balog'a" - T: Xazina, 1996, 54-b.
[2] Ahmad Taroziy. " Funun ul-balog'a" - T: Xazina, 1996, 54-b.

[3] Хусайний Атоулло Маҳмуд Бадоеъ ус- саноеъ. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 72-бет.
[4] Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. 64-бет.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda "Murabba (arab.to'rtlik) - she'rshunoslikda to'rt misradan iborat she'r deya tushuniladi. Murabba' so'zining asl ma'nosi geometrik shakl kvadratga to'g'ri keladi. Zamonaviy she'rshunoslikda murabba' deganda to'rt misradan iborat she'r tushuniladi. "Murabba" (arabcha –to'rtlik degani) har bandi to'rt misradan tashkil topgan she'riy shaklning nomi sanaladi. Bu badiiy san'at emas, balki she'r turlaridan biridir.

Keltirilgan nazariy ma'lumotlarda Ahmad Taroziy ta'kidlagan "murabba'i musajja'"ga xos fikrlar kuzatilmadi. Demak, Ahmad Taroziy "murabba'i musajja'"ni murabbaning bir turi sifatida sanagan. Ya'ni g'azalning "g'azali musajja'" turi bo'lgani kabi.

Ahmad Taroziyning "murabba'i musajja'" bilan bog'liq qarashlari musammat va sa'jning o'zaro aloqadorligidan dalolat beradi. Fikrimizni Atoulloh Husaynining quyidagi fikrlari tasdiqlaydi: "Saj'ning musammatga ta'siri haqida Atoulloh Xusayniy shunday yozadi: "Rashididdin Vatvot deptur: "Bu san'at andog' bo'lurkim, shoir bir baytni to'rt teng bo'lakka bo'lgay, uch bo'lagining oxirida saj' bergay va to'rtinchi bo'lakda qofiya keltirgay. Bu she'rni musajja' deb ham atarlar"[5]

Ogahiy musammatlarini o'rgangan olima G. Xolliyeva ham musammatlarning, jumladan, murabbalarning sa'j bilan aloqadorligiga e'tibor qaratadi va Ogahiyning quyidagi murabbasiga munosabat bildiradi:

O'tibdur iltifoting orzusi birla oyu yil
Ko'zim giryon , tanim larzon, ko'ngil nolonu alkon til
Boqib ayni karamdin ushbuholimga tarahhum qil
Nigorim mehribonim mukrimat taxtida Sultonim!

Mazkur bandda shoir lirik qahramonning ruhiy iztirobini **ko'zim giryon**, **, tanim larzon**, **ko'ngil nolonu alkon til** jumlalarida mavjud saj' san'ati orqali yorqin ifodalay olgan. Buni biz ichki qofiya deb ayta olmaymiz, balki nazmdagi saj'ning go'zal namunasi deb aytamiz. Sababi, yuqoridagi tartibga xos saj'lanish shu murabba'ning boshqa bandlarida uchramaydi.[6]

Adabiyotshunoslarning ta'kidicha, musammatlar janri xalq og'zaki ijodi ta'sirida, saj' qonuniyati asosida paydo bo'lganligini inobatga olsak, murabba'ning musajja'li turi ham shu ta'sir natijasida yuzaga kelgan. Murabbaning bu turida ijod qilish g'azali musajja' singari murakkab bo'lganligi bois barcha ijodkorlada kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmad Taroziy. " Funun ul-balog'a" - T: Xazina, 1996.
2. Хусайний Атоулло Маҳмуд. Бадоеъ ус- саноеъ. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
3. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976.
4. Холлиева Г. Огаҳий-мусамматлари. Тошкент: "Мумтоз сўз", 2019.

[5] Хусайний Атоулло Маҳмуд. Бадоеъ ус- саноеъ. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 74-бет
[6] Холлиева Г. Огаҳий-мусамматлари. Тошкент: "Мумтоз сўз", 2019. 41-бет.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.